

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 16 - noyabr

405-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

Yer maydonini zaxiraga qaytarib olish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6243-sonli Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-sentabrdagi "Islom taraqqiyot banki va opek xalqaro taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida «Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5246-sonli qarori asosida, O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2023-yil 9-noyabrdagi 02-3591-sonli xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2023-yil 9-noyabrdagi 02-3591-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining egaligida bo'lgan To'rtko'l tumani "Do'stlik" MFY hududidagi 0,7 gektar qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni To'rtko'l tumani hokimligi zaxirasiga o'rnatilgan tartibda qaytarib olinsin.

3. Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) To'rtko'l tumani hokimligi zaxirasiga yer maydoni qaytarib olinishi munosabati bilan yer hisobotiga qonunchlikka muvofiq tegishli o'zgartirishlar kiritsin.

4. Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi

(S.Urunboyev) To‘rtko‘l tumani hokimligi (R.Shamuratov) bilan birgalikda mazkur qaytarib olingan yer maydonlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-sentabrdagi “Islom taraqqiyot banki va opek xalqaro taraqqiyot jamg‘armasi ishtirokida «Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5246-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida maktab binosini qurish uchun ajratish loyiha hujjatlarini qonunga muvofiq tayyorlash choralarini ko‘rsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov